

## **BOSHLANG'ICH TA'LIM NATIJALARINI XALQARO DASTURLAR(EGMA va EGRA) KRETERYALARI ASOSIDA BAXOLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

*Baxronova Gulnoza Tursunovna,  
Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi  
<https://orcid.org/0009-0004-0275-9392>  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.015>*

*Anotatsiya :Ushbu maqolada EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlari va ular orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish haqida ma'lumotlar berilgan. Tayanch so'z va tushunchalar: xalqaro dasturlar, mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish.*

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЙ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ (EGMA и EGRA)**

*Бахронова Гульноза Турсуновна,  
Независимый исследователь Бухарского государственного университета*

*Аннотация: В этой статье представлена информация о международных программах оценивания EGRA и EGMA, а также о том, как научить учащихся начальной школы мыслить самостоятельно.*

*Ключевые слова и понятия: международные программы, самостоятельное мышление, рефлексия.*

## **PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF ASSESSMENT OF PRIMARY EDUCATION RESULTS ON THE BASIS OF THE CRITERIA OF INTERNATIONAL PROGRAMS (EGMA and EGRA)**

*Bakhronova Gulnoza Tursunovna,  
Independent researcher of Bukhara State University*

*Abstract: This article provides information about the EGRA and EGMA international assessment programs and how to teach primary school students to think independently.*

*Keywords: international programs, independent thinking, reflection.*

Oxirgi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada kengaytirmoqda. Bu o'z-o'zidan bolalarning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini qaratishga talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, ayrim xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini bildiradi. Bugungi kunda o'quvchilarning o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo'yicha mahoratlarini baholash tadqiqotlarini tizimga tatbiq etish boshlangan. Bu tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini yaxshilash hamda ta'lim jarayonidagi ayrim kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi. Bu baholash tizimi dunyoning 70 dan ko'p mamlakatlarda qo'llaniladi. Shuningdek, PISA, TIMSS, PIRLS kabi o'quvchilar bilimi darajasini baholash uchun xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi. EGRA va EGMA tadqiqotlari boshlang'ich sinflarni o'qitishda tizimli bo'shliqlarni analiz va ularni hal etishning eng maqbul yechimlarini topuvchi, o'qish hamda savodxonlik ko'nikmalarini sinovchi ilmiy asoslangan loyiha hisoblanadi. Bu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan AQShning Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Mazkur loyiha 2019 yil 28 sentyabrda XTV va USAID o'rtasida 50 million dollarga imzolangan besh yillik rivojlanish maqsadlari to'g'risidagi bitimning birinchi tarkibiy qismidir. AQShning O'zbekistondagi elchisi Deniyel Rozenblyumning ta'kidlashicha, EGRA va EGMA boshlang'ich sinf o'qituvchilarning savodxonligi va matematika bo'yicha ko'nikmalarini baholovchi oddiy, arzon va kuchli vositadir. Bu vosita bolaning

bilimi, o'qituvchining dars berishi yoki direktorning maktabni boshqaruv ko'nikmalarini tekshirmaydi. Shuningdek, jarayonda o'tish yoki yomon baho bo'lmaydi. Tibbiyot xodimlari bemorga muolaja belgilash, ko'rikdan o'tkazishdan avval uni tekshiradi. EGRA va EGMA esa boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondoshuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi. EGRA (The Early Grade Reading Assessment) baholash modelining maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq malakalarini rivojlantirish, nutqiy ko'nikma va malakalarini hamda o'qish savodxonligini oshirishdan iborat. EGMA (The Early Grade Mathematical Assessment) baholash modelining maqsadi 2-4 sinf o'quvchilarining og'zaki hisoblash malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish, matematik savodxonligini oshirishdan iborat. Boshlang'ich sinflar davomida matematikadan olingan mustahkam poydevor kelajakdagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Shuningdek, matematika kelajakda ish joyidagi ko'nikmalar va bilimlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fandır. EGMA bolalarning asosiy ko'nikmalarini rivojlantirayotganligini aniqlash imkonini beradi, boshqa matematik ko'nikmalar hosil qiladi va harakatlarni eng yaxshi tomonga yo'naltiradi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishda juda muhim. EGMA quyidagi: raqamni identifikatsiya qilish (raqamni aniqlash); kattalik haqida mulohaza yuritish (raqamlarni kamsitish); raqamlarni tan olish (yo'qolgan raqam); qo'shish va ayirish; birinchi va ikkinchi darajalar va so'z muammolarini o'z ichiga oladi. Mamlakatimiz buyuk kelajak sari intilib taraqqiy etgan mamlakatlar atoridan munosib o'rin egallab bormoqda. O'sib kelayotgan avlodning ta'lim tarbiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, shuningdek o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatish maqsadida turli dastur va texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylanib qolmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda har xil zamonaviy, xalqaro dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Joriy yilning noyabr oyida O'zbekistonning 70 ta umumta'lim maktablaridan 2,8 ming nafar o'quvchi o'zbek-amerika loyihasi doirasida boshlang'ich sinfda o'qish (EGRA) va matematika (EGMA) ko'nikmalarini baholash bo'yicha tadqiqotlarda ishtirok etadi. 14 noyabr kuni Toshkent shahridagi 238-umumta'lim maktabida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov hamda AQShning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Deniyel Rozenblyum ishtirokida EGRA va EGMA pilot loyihasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. EGRA va EGMA tadqiqotlari boshlang'ich sinflarni o'qitishda tizimli bo'shliqlarni tashxislash va ularni hal etishning eng maqbul yechimlarini aniqlovchi, o'qish hamda savodxonlik ko'nikmalarini sinovchi ilmiy asoslangan modellar hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan AQShning Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Mazkur loyiha 2019 yil 28 sentyabrda XTV va USAID o'rtasida 50 million dollarga imzolangan besh yillik rivojlanish maqsadlari to'g'risidagi bitimning birinchi tarkibiy qismidir. EGRA va EGMA tadqiqotlari yurtimizning 12 viloyatida 7 tilda hamda ingliz tilida olib borilishi rejalashtirilgan. Pilot tadqiqotlar ikki hafta davomida mamlakatimizning 70 ta maktabida o'tkaziladi hamda 1,4 Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun esa boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning ijodiy ishlarini tashkil qilishda ta'lim texnologiyalari, turli xil metod, usullar va tarqatma materiallaridan foydalanish bilan bir qatorda EGRA va EGMA dasturlari haqida ma'lumotlar berib, ularni dars jarayonida qo'llash ham boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanishi va kamol topishi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu vaqtgacha ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, endilikda EGRA va EGMA dasturlari orqali ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Buning natijasida o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil va tezda bayon etishga o'rganadilar, o'z ustida ishlash qobiliyati shakllanadi. Mingta 2-sinf va 1,4 mingta 4-sinf o'quvchilarini qamrab oladi. Sinovning asosiy maqsadi har bir til uchun vositalarni sinab ko'rish, ma'lumotlarni yig'ish,

shuningdek ushbu tillarda imtihon topshirish amaliyotini sinab ko'rishdan iborat. Test o'tkazish uchun 5 nafar imtihon oluvchilardan tarkib topgan guruhlar tashkil etildi. 2020 yilning may oyida

O‘zbekiston maktablarida to‘liq tadqiqotlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Tadqiqotlar 10 kun davomida tasodifiy tanlangan 940 ta maktabda o‘tkaziladi. Mazkur jarayonga 11,28 mingta 2-sinf va 4-sinf o‘quvchilari qamrab olinadi. Sinovlarda har bir sinfda 12 nafar o‘quvchi ishtirok etadi. EGRA va EGMA tadqiqotlarining yakuniy natijalari 2020 yilning avgust oyida e‘lon qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vaziri Sherzod Shermatov bugungi kunga qadar o‘quvchilar bilimini baholashning ob‘ektiv tizimi yo‘qligini ta‘kidladi: - Hozirda Xalq ta‘limi vazirligi xalqaro tajriba va tadqiqotlar asosida bu kabi tizimlarni joriy etish ustida ishlamoqda. Ilk bora xalqaro tizim asosida o‘quvchilar bilimi baholanyapti. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekiston natijalarini boshqa davlat ma‘lumotlari bilan taqqoslash va ularni hal etishning eng yaxshi usullarini topish imkonini beradi. Shu munosabat bilan direktor va o‘qituvchilarni baholashning xolisligini ta‘minlashga chaqiraman. Chunki ma‘lumotlar ta‘lim tizimidagi muammolarni aniqlashga yordam beradi, - deydi vazir. PIRLS – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash; TIMSS – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash; TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qitish va ta‘lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish; PISA – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash. EGRA va EGMA esa boshlang‘ich sinflarda o‘qish hamda matematika bo‘yicha ko‘nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko‘ra yangi o‘quv dasturlari, o‘qitish uslubi va yondashuvlar O‘zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko‘rsatishi uchun moslashtiriladi 240 . Bu loyihalar o‘quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi. AQShning O‘zbekistondagi elchisi Deniyel Rozenblyumning ta‘kidlashicha, EGRA va EGMA boshlang‘ich sinf o‘qivchilarning savodxonligi va matematika bo‘yicha ko‘nikmalarini baholovchi oddiy, arzon va kuchli vositadir. Men “baholash” so‘zi bekorga tanlanmaganligini ta‘kidlamoqchiman. Bu vosita bolaning bilimi, o‘qituvchining dars berishi yoki direktorning maktabni boshqaruv ko‘nikmalarini tekshirmaydi. Shuningdek, jarayonda o‘tish yoki yomon baho bo‘lmaydi. Tibbiyot xodimlari bemorga muolaja belgilash, ko‘rikdan o‘tkazishdan avval uni tekshiradi. EGRA va EGMA esa boshlang‘ich sinflarda o‘qish hamda matematika bo‘yicha ko‘nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko‘ra yangi o‘quv dasturlari, o‘qitish uslubi va yondashuvlar O‘zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko‘rsatishi uchun moslashtiriladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish va matematika ko‘nikmalarini baholash boshlandi. Ta‘limdagi bunday o‘zgarishlar o‘quv dasturi va o‘quv adabiyotlari mazmunini o‘zgartirishga undadi. Ona tili, matematika va tabiiy fanlardan PISA baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar milliy bazasini yaratildi va o‘quv dasturlariga kiritildi. PISA baholash dasturi yo‘nalishidagi savollar singdirilgan o‘quv dasturlari asosida qo‘shimcha qo‘llanma hamda adabiyotlar yaratish va amaliyotga joriy etildi. 5- sinfdan 11-sinfgacha o‘quv darsliklarida buni ko‘rish mumkin. PISA ona tili, matematika va tabiiy fanlarni o‘qitishning shakl, metod, texnologiyalarini yangilanib o‘qituvchilarning bu boradagi bilimini oshirilmoqda. Bu fanlardan o‘quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini yaratilib, 2019-2021-yillarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o‘tkazish niyatida. PISA testlaridan ona tili darslarida foydalansa, o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, matn bilan ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish va sinchkovlik talab etiladigan topshiriqlarni qo‘llash o‘quvchining hayotiy va intellektual ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, 7-sinf ona tili dasturida berilgan “Biriktiruv bog‘lovchilari” mavzusini o‘tishda o‘qituvchi mavzuni mustahkamlash maqsadida darslikdan tashqari quyidagi matn asosida PISA topshiriqlari tuzishi mumkin: “Aljabr” matni asosida mantiqiy topshiriqlar: Riyoziyot olimi al-Xorazmiydan inson haqida so‘rashdi. Olim shunday dedi: -Agar inson yaxshi xulq sohibi bo‘lsa, u 1 ga teng. -Agar inson husn sohibi bo‘lsa, birning yoniga nolni qo‘shamiz, 10 bo‘ladi. -Agar inson boy bo‘lsa, yana bir nolni qo‘shamiz – 100 bo‘ladi. -Agar nasl-nasabli bo‘lsa, yana bir nolni qo‘shamiz-1000 bo‘ladi. -Agar 1 raqami yo‘q bo‘lib ketsa, insonning qiymati yo‘qqa chiqib, nollarning o‘zi qoladi. O‘zbekistonda 15 noyabrdan 7 dekabrgacha boshlang‘ich sinflarda o‘qish (EGRA) va matematika ko‘nikmalarini baholash (EGMA) bo‘yicha ilk tadqiqot o‘tkazilmoqda. USAID va Xalq ta‘lim vazirligi o‘rtasidagi qo‘shma loyiha ushbu fanlar bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirishga yordam beradi. AQSh xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) Xalq ta‘limi vazirligi bilan hamkorlikda 15 noyabrdan 7 dekabrgacha boshlang‘ich sinflarda o‘qish (EGRA) va matematika ko‘nikmalarini baholash (EGMA) bo‘yicha mamlakat bo‘ylab tadqiqot olib boradi. Bu haqda AQShning O‘zbekistondagi elchixonasi xabar berdi. 17 noyabr kuni poytaxtdagi

232-maktabda o'quv boshlanishiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. EGRA va EGMA — umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik va hisoblash ko'nikmalarini baholashga mo'ljallangan ilmiy asoslangan modellarga tayanadi. AQShning O'zbekistondagi elchixonasi bergan ma'lumotlarga ko'ra, EGRA va EGMA tadqiqoti 937 ta davlat umumta'lim maktabidagi 11 ming nafar o'quvchining o'zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, qirg'iz va turkman tillari, shuningdek, ikkinchi til sifatida o'zbek tiliga oid ko'nikmalarini baholaydi. Bugungi kunga qadar USAID EGRA va EGMA baholash tadqiqotini 40 dan ortiq mamlakatda o'tkazib, to'plangan ma'lumotlar ushbu mamlakatlarga o'z o'quvchilarining o'qish va matematika bo'yicha asosiy ko'nikmalarini yaxshilashga yordam bergan. Respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlar negizada maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tizimning islohoti sharoitida har tomonlama rivojlangan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil qilish va samaradorligini ta'minlash dolzarb vazifalardan biridir. Xalqaro tajribada maktabga ta'lim tizimining o'ziga xosliklari

Bugungi kunda jamiyatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha qo'yilgan vazifalarda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot kommunikasiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediyaviy vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, liseylari va oliy ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash samarali tizimini yanada rivojlantirish ko'zda tutilganligi dolzarb vazifalarimizdan biridir.

O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi" da ko'rsatilganidek - maktabgacha ta'lim - u ko'p tomonlama maqsadga yo'naltirilgan, bolaning ta'limning keyingi bosqichi maktabga tayyorlovchi, jismoniy, ruhiy, individual va yoshga doir rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya jarayonidir.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'kidlanganidek, maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuk maktabga o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Respublikamiz mustaqilligi yillarida maktabgacha tarbiya muassasalarida amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarga qo'yiladigan talablar o'zgardi. Bugungi kun maktabgacha tarbiya muassasalari kichikintoylarning dastlabki mehnat ko'nikmalarini shakllantirishi, ularda musiqa, nafosat tarbiyasini shakllantirishi, sog'lom-barkamol bo'lib o'sishini, ona-yurt va uning go'zal tabiatiga, xalqiga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiya topmogi, xorijiy tillardan birini va kompyuter texnikasi alifbosini o'tagan, o'qish-yozishni o'rganib, savodxon bo'lgan bolalarni tarbiyalab berishi zarur.

Maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashini, oila yoki maktabgacha ta'lim va tarbiya sharoitlaridan maktab ta'limiga o'tkazishni ta'minlash zarurligi va bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanligi bir qator olimlar, mutaxassis psixologlar tomonidan isbotlangan.

Maktabgacha ta'lim, bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va etuk, maktabga o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu borada bolalarni maktabga tayyorlashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash milliy g'urur, vatanparvarlikni shakllantirish, bilim olishga, o'qishga ehtiyojni, mayllarni shakllantirish va jismoniy, ruhiy sog'ligini ta'minlash maqsadini vazifa qilib qo'ygan. Bu maqsad va vazifalarni amalga oshirishda xalqaro tajribalarga tayanish hamda innovatsion g'oyalarni amaliyotga tadbiiq etish zarurati majud. Jumladan, maktabgacha ta'limga YAponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70%ni, qolgan 30%ni butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan va yapon ayollari uchun onalik birinchi o'rinda, bola tarbiyasi ularning hayotlarining maqsadlariga aylangan. YAponlar bolaning erta voyaga etishi va ijtimoiylashuvni ham yosh davrlari bilan birgalikda rivojlanishiga e'tibor qaratadilar. Masalan, 1 yoshda - o'ziga ishonch hissini uyg'otish, 2 yoshda - amaliy san'at qo'l mehnatini ko'rsatish, 3 yoshda - burch hissini tarbiyalash, 4 yoshda - yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish, 5 yoshda - liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish kabilardan iborat. Qiz va o'g'il bolalarning tarbiyasi alohida mazmun kasb etadi. O'g'ilga oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qiyinchiliklarni engishga o'rgatiladi. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlash asosiy o'rinni egallaydi. YAponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruhlar—"xan"larga bo'ladi. Bu bolalarga bog'chada "o'z ish o'rni" ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. SHu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruhdagi har bir o'quvchi guruhda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunday

xanlar keyingi ta'lim bosqichida ham qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun har 5 oyda o'zgartirib turiladi. YAponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat. SHuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga ham katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang'ich ta'limga erta qabul qilishga o'tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog'chasiga jalb qilish ko'zda tutilmoqda. Bolalar bog'chasi YAponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi – bolani maktabga tayyorlashdir. Bu erda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo'lmasin, o'quvchilarni o'ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Germaniya davlatida ham maktabgacha ta'lim tizimi muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim bolalar bog'chasi (Kindergarten)da amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga etmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem.Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar bog'chasida (nem. Schulkindergarten) taxsil oladilar. Bu bog'chalar alohida FE qoidasiga ko'ra yoki maktabgacha sektorga yoki boshlang'ich ta'lim sektoriga bo'ysunadi. Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin ko'pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasiga yuklatilgan. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar. Bolalar bog'chasi olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o'rganilib, qabul qilingan muassasa hisoblanadi. U yuqorida ta'kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun xuquqiy me'yorlar ishlab chiqilgan. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi va bog'chaga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi. Maktabgacha bolalar bog'chasi tayyorlov sinflari va kirish guruhlarimaktab ta'limining birinchi bosqichiga kiradi.

Rivojlangan mamalakatlardan biri bo'lgan Janubiy Koreyada bolalar bog'chasi umumta'lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha muassasalarga beradilar. Bu muassasalarda mashg'ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba'zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog'chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo'lishi mumkin. Belgiyada maktabgacha ta'lim (MT) 2,5 yoshdan boshlanadi. Ushbu belgilangan yoshga etganda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga berishadi, shu sababli guruhdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi.

Maktabgacha ta'lim guruhlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg'ulotlar o'yin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belgiyada taxminan 90%gacha bo'lgan bolalar unga qatnashadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim muassasalari boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi. Bolalar 6 yoshga etganda boshlang'ich maktabning birinchi sinfiga qabul qilinadi.

YUqoridagi fikr-mulohazalardan shuni ta'kidlash joizki, xalqaro tajribalarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni didaktik talablar asosida tashkil qilish hamda bola rivojlanishida bilimni o'zlashtirishning yosh xususiyati ahamiyatli ekanligini, tarbiya jarayonida qiz va o'g'il bolalar tarbiyasida ijtimoiy talablarning bajarilishi muhim ahamiyatga ega asoslab brilgan. Demak, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda o'yin kompetensiyalari orqali jamiyat talablariga javob bera oladigan shaxslarni shakllantirish pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir. CHunki bolaning asosiy faoliyati hisoblangan o'yin orqali hayotiy ko'nikmalar shakllanadi va bu bola kompetensiyasini ta'lim-tarbiya jarayonida namon bo'lishiga

xizmat qiladi.

Bolalar o'yinining o'ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. O'yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o'rmon, avtopark, temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin. O'yinning ijodkori, yaratuvchisi -bolalardir. Ular o'yinda o'zlariga tanish bo'lgan hayotiy voqea va hodisalarni ularga bo'lgan munosabatlarini aks ettiradilar.

Bolalar o'yinining yana bir o'ziga xos xususiyati — unda harakat, so'z va obrazlarning o'zaro bog'lanib ketishidir. O'yinda bola o'zi aks ettirayotgan qahramonning his-hayajoni, kechinmalari, harakatlari bilan yashaydi. SHuning uchun ko'pincha uning ismini aytib chaqirishganda, u javob bermay, shunday deydi: Men "Komil emasman, kapitanman". SHunda tarbiyachi: "O'rtoq kapitan, sizning kemangiz yaqinda dengizga chiqadi. Matroslar kuchli va sog'lom bo'lishlari kerak. Ularni jismoniy mashqqa saflantiring", deydi. SHunda kapitan savlat bilan xursand holda: "Badan tarbiyasiga saflaning", deb komanda beradi.

Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqat o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o'rniga o'zi gapiraveradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.

Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. O'yinda obraz, o'yin harakati, so'z o'zaro bog'lanib, o'yin faoliyatining asosiy negizini tashkil etadi, borliqni aks ettirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. O'yinning g'oyasi — bu nima o'ynashni belgilab olish: "do'kon", "shifoxona", "uchuvchilar", "ona-bola" ("Oila"), "maktabgacha tarbiya muassasasi" va shunga o'xshashlar. O'yin mazmuniga, g'oyasiga, qarab bolalarning bunday o'yinlarini bir necha o'ziga xos guruhlarga bo'lish mumkin:

- a) maishiy turmushni aks ettiruvchi o'yinlar ("oila", "maktabgacha tarbiya muassasasi", "shifoxona")
- b) kishilarning yaratuvchilik mehnatini aks ettiruvchi o'yinlar (metro qurilishi, dehqonlar mehnati, uy, korxonalarining qurilishi va h. k.);
- v) ijtimoiy voqealarni, an'analarni aks ettiruvchi o'yinlar (bayramlar, namoyishlar, sayohat; mehmonlarni ko'tish).

O'yinlarning bunday bo'lishi albatta shartli bo'lib, bir o'yinda har xil hayotiy voqealar aks etishi ham mumkin. G'oya o'yinning mazmuni, jonli to'qimasi bo'lib, uning rivojlanishini, o'yin harakatlarini, bolalar munosabatlarining har xilligi va o'zaro bog'lanishini belgilab beradi.

O'yinning qiziqarli bo'lishi va unda bolalarning qanday, ishtirok etishlari o'yin mazmuniga bog'liq. O'yinda bola ijro etadigan rol-o'yinning asosiy o'zagi va tarkibiy xususiyatidir. SHuning uchun ham bu o'yinlar rolli yoki syujetli-rolli o'yinlar nomini olgan. Bola olgan rolga qarab, o'sha obrazga kirib ketadi va uning rostligiga ishonadi.

Bolaning rivojlanishida o'yin faoliyati. O'yin maktabgacha yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolalarning kelajakdagi o'quv va mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O'yin faoliyati asosida boladagi bilish faoliyati rivojlanadi, bola qancha yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi.

Bola maktabgacha tarbiya yoshiga etgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. CHunki xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib uning tashqi muhit bilan munosabatlarida anchagina o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi davrda ayrim psixik jarayonlarning rivojlanishi bilan birga ularning shaxsi va shaxsiy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun mavhum nazariy faoliyatning, ya'ni nazariy yo'l bilan bilish faoliyatining bo'lishi mumkin emas. Bu yoshdagi bolalarning atrofdagi narsalarni bilish faoliyatlari faqat bevosita harakat shaklida bo'ladi. Bolalar atroflaridagi kattalar uchungina mansub bo'lgan, hali o'zlarining kuchlari ham, aqllari ham etmaydigan juda ko'p narsalarni faqat o'yin faoliyati orqali o'zlashtiradilar. O'yin orqali voqeylikdagi narsa va hodisalarni biladilar. O'yin tevarak-atrofdagi narsalarni bilish vositasi emas balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Bolani o'yin orqali ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni ham tarbiyalash lozim. Professor E.A. Arkin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar o'yinining quyidagi taxminiy klasifikatsiyasini beradi.

O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi tizimda xalqaro baholash dasturlarini joriy etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirmoqda. Bu haqda vazirlik axborot xizmati xabar berdi. Hozirgi kunda o‘quvchilarning o‘qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo‘yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga tatbiq etish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari olib borilyapti. Mazkur tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirishini yaxshilash hamda ta’lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordamberadi. Ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo‘llaniladi. Shuningdek, PISA, TIMSS, PIRLS kabi o‘quvchilar bilimi darajasini baholash uchun xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi. Joriy yilning 9-18-oktyabr kunlari ta’lim jarayoniga xalqaro tajribalarni tatbiq etish, umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish va matematika fanlaridan bilimlarini aniqlash hamda bilim samaradorligini oshirish maqsadida Respublika ta’lim markazida o‘quv-amaliy seminar tashkil etiladi. Mazkur seminarda EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturi loyihasi bo‘yicha 46 nafar monitoring guruhi a‘zolari ishtirok etadi. Seminar-treningda EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturi haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, dasturni tizimga tatbiq etish vositalari ishlab chiqiladi. O‘quv seminaridan so‘ng EGRA va EGMA xalqaro tajribalari amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etib boriladi. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimiga EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlari AQSHning USAID tashkiloti bilan hamkorlikda joriy etilmoqda. O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi tizimda xalqaro baholash dasturlarini joriy etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirmoqda. Hozirgi kunda vazirlik o‘quvchilarning o‘qish (EGRA) va matematika (EGMA) bo‘yicha qobiliyatlarni baholash tadqiqotlarini tizimga joriy etish bo‘yicha tayyorgarlik ishlarini olib bormoqda, deb xabar beradi vazirlik axborot xizmati. Mazkur tadqiqotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirishini yaxshilash hamda ta’lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlashga yordam berishi ta’kidlab o‘tilgan. Ushbu baholash tizimi dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo‘llaniladi. Shuningdek, PISA, TIMSS, PIRLS kabi o‘quvchilar bilimi darajasini baholash uchun xalqaro tadqiqotlar hamda dasturlar tayyorlash uchun yaxshi vosita hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimiga EGRA va EGMA xalqaro baholash dasturlari AQSHning USAID tashkiloti bilan hamkorlikda joriy etilmoqda. Xulosa qilib aytganda yuqoridagi vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi mamlakatimiz ta’lim tizimining xalqaro ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvini ta’minlaydi, sohadagi bo‘shliqlarni aniqlashga, yangi vazifalarni belgilab olishga xizmat qiladi. Eng muhimi, o‘quvchilar bilimni adolatli va shaffof baholashga erishamiz. Shu bilan bir qatorda endigina shakllanib kelayotgan boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga, o‘z g‘oyalarini erkin bayon etishga o‘rgatib kelajagimiz uchun mustahkam poydevor yaratamiz.

#### ADABIYOTLAR

1. “In improving the innovative professional activity of future pedagogues, problem-based learning the most effective method of teaching”. Science and technologies. 2023 y. № 3 (1). P 107-112.
2. Raxmonova S.M. “Practical features of preparing primary education students for professional activity” Science and innovation in the education system, 2 (9), 2023 y. P 67-71